

O'SMIRLIK DAVRIDA DEVIANT XULQ – ATVORNING PSIXOLOGIK SABABLARI VA PROFILAKTIKA USULLARI.

Zaripova Latofat Bahriddin qizi

Osiyo Xalqaro Universiteti, Psixologiya yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: *Mazkur ilmiy maqolada o'smirlik davrida deviant xulq-atvorning shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy psixologik omillar tahlil qilingan. O'smirlik davrining yoshga xos psixologik xususiyatlari, hissiy beqarorlik, identifikatsiya jarayoni, ijtimoiy muhit hamda oilaviy va tengdoshlik munosabatlarining deviant xatti-harakatlarga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, deviant xulq-atvorning keng tarqalgan ko'rinishlari va ularning salbiy oqibatlari ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan. Maqolada o'smirlar orasida salbiy xulq-atvorni oldini olishga qaratilgan shaxsiy, oilaviy, ta'lim muassasalari va ijtimoiy darajadagi kompleks profilaktika usullari bayon etilgan. Tadqiqot natijalari o'smirlar bilan ishlovchi pedagoglar, psixologlar hamda ota-onalar uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lib, yoshlarning sog'lom psixologik rivojlanishinin ta'minlashga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *o'smirlik davri, deviant xulq-atvor, psixologik omillar, profilaktika, ijtimoiy moslashuv, psixologik xizmat.*

Аннотация: *В данной научной статье анализируются основные психологические факторы, влияющие на формирование девиантного поведения в подростковом возрасте. Рассматриваются возрастные психологические особенности подросткового периода, эмоциональная нестабильность, процессы идентификации, а также влияние социальной среды, семейных и межличностных отношений со сверстниками на проявление девиантных форм поведения. Кроме того, в статье научно обоснованы наиболее распространённые виды девиантного поведения и их негативные последствия. Особое внимание уделено комплексным профилактическим мерам, направленным на предупреждение негативного поведения подростков на личностном, семейном, образовательном и социальном уровнях. Результаты исследования имеют практическую значимость для педагогов, психологов и родителей и способствуют обеспечению гармоничного психологического развития подростков.*

Ключевые слова: *подростковый возраст, девиантное поведение, психологические факторы, профилактика, социальная адаптация, психологическая служба.*

Annotation: *This scientific article analyzes the main psychological factors influencing the formation of deviant behavior during adolescence. The age-specific psychological characteristics of the adolescent period, emotional instability, identity formation processes, as well as the impact of the social environment, family relations, and peer interactions on the manifestation of deviant behavioral patterns are examined. In addition, the most common forms of deviant behavior and their negative consequences are theoretically substantiated. Particular attention is paid to comprehensive preventive measures aimed at preventing*

negative behavior among adolescents at the individual, family, educational, and social levels. The results of the study have practical significance for teachers, psychologists, and parents and contribute to ensuring the healthy psychological development of adolescents.

Keywords: *adolescence, deviant behavior, psychological factors, prevention, social adaptation, psychological services.*

KIRISH

O'smirlik- inson hayotidagi eng murakkab va keskin o'zgarishlar davri bo'lib, jismoniy, psixologik, ijtimoiy hamda hissiy jihatdan beqarorlik bilan tavsiflanadi. Bu davr shaxsiyatning shakllanishi, mustaqil qarorlar qabul qilishi va jamiyat bilan muloqot mexanizmlarini o'rganishi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, o'smirlar atrof-muhitning turli ta'sirlari ostida deviant xulq-atvor ko'rsatishi mumkin. Deviant xulq-atvor – bu shaxsning jamiyat qabul qilgan ijtimoiy normalar, me'yor va qadriyatlarga zid bo'lgan harakatlari yoki munosabatlaridir. Uning natijasida intizomsizlik, huquqbuzarlik, tajovuzkorlik, giyohvand moddalar iste'moli, maktabda va ijtimoiy hayotda moslashuvchanlikning kamayishi kabi salbiy holatlar yuzaga keladi.

Maqolaning maqsadi- o'smirlik davrida deviant xulq-atvorning paydo bo'lishi sabablari, uning psixologik omillari va samarali profilaktika usullarini muhokama qilishdan iborat.

Deviant xulq-atvor tushunchasi va nazariy asoslar.

Deviant xulq-atvor- shaxsning jamiyat tomonidan qabul qilingan normalar va qoidalarga zid bo'lgan, ijtimoiy me'yorlardan chetga chiqadigan xatti-harakatlar majmuasi sifatida ta'riflanadi. Psixologiya fanida bu tushuncha ko'pincha ijtimoiy normative nazariya, shaxsiyat rivojlanishiga va xulq-atvor psixologiyasi doirasida tahlil qilinadi.

Ijtimoiy normalar va deviant xulq-atvor

Ijtimoiy normalar- bu jamiyatning a'zolaridan kutiladigan standart xulq-atvor qoidalari bo'lib, ularni buzish deviant xulq-atvor deb qaraladi. Deviant harakatlar, odatda, yoshlarning shaxsiy va ijtimoiy o'zligini izlash jarayonida yuzaga keladi va bu fenomen ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, oilaviy hamda psixologik omillarga bog'liq. Psixologik yondashuvlar yoshlarning deviant xulq-atvorini tushunishda muhim rol o'ynaydi. Freydnik psixoanalitik nazariyaga ko'ra, ichki konfliktlar, hayajonlarni nazorat qila olmaslik va oilaviy muhitning salbiy ta'siri deviant xulq-atvorni yuzaga keltiradi. Ijtimoiy o'rganish nazariyasi esa shuni ta'kidlaydiki, yoshlar atrofdagilarning (uyalar, ommaviy axborot vositalari, do'stlar) deviant xatti-harakatlarini kuzatib, o'rganib oladi.

O'smirlik davri: psixologik xususiyatlar.

O'smirlik- taxminan 10-19 yoshlar orasidagi davr bo'lib, bu vaqt mobaynida jismoniy o'sish, aqliy va hissiy o'zgarishlar, shaxsiyat shakllanish jarayoni sodir bo'ladi. Bu davrda ruhiy holat sezilarli o'zgaradi, qiyinchiliklarga nisbatan sezgirlik oshadi va yangi ijtimoiy rollarni egallash intilishi kuchayadi.

Identifikatsiya jarayoni.

O'smirlar o'zlarini aniqlash , “men kimman ?” degan savolga javob topishga intiladi. Bu jarayon ko'pincha kattalar va tengdoshlarga taqlid, turli xatti-harakatlarni sinab ko'rish orqali amalga oshadi.

Hissiy beqarorlik- gormonal o'zgarishlar, stressga sezuvchanlik ortishi, o'zini boshqalar bilan solishtirish-bularning barchasi hissiy beqarorlikni kuchaytiradi. Bu esa ruhan taranglik , tushkunlik, norozilik holatlarini yuzaga keltiradi.

Mustaqillik ustagi o'smirlar mustaqil bo'lishni xoxlaydi, ota-onalar va maktab me'yorlariga qarshi chiqishi mumkin. Bu jarayon ba'zida nazorat va cheklovlarga qarshi norozilik shaklida namoyon bo'ladi.

Deviant xulq-atvor turlarining psixologik sabablari.

Deviant xulq-atvor yuzaga kelishida ko'plab psixologik omillar rol o'ynaydi. Quyida asosiy omillar tahlil qilinadi.

Psixologik ijtimoiy muhit- yoshlar o'zlarini oilaviy, maktab va ijtimoiy guruhlarda qanday tutishlarini shu muhitlar belgilaydi. Oiladagi nizolar, ota-onalar beparvoligi, zo'ravonlik, e'tiborsizlik- bularning barchasi deviant xatti-harakatlarga olib keladi.

Tengdoshlik guruhlari ta'siri- tengdoshlik guruhlari o'smirlar uchun muhim ta'sir omili hisoblanadi. Guruhning buzilgan me'yorlari bo'lsa, yoshlarni bu guruhga moslashish istagi deviant harakatlarni kuchaytiradi.

O'zini past baholash va komplekslar- o'ziga ishonchsizlik, g'urur muvaffaqiyatsizlik komplekslari, ijtimoiy qabul qilinish istagi-bular o'smirlarni radikal, agressiv yoki chetga chiqadigan xatti-harakatlarga yetaklashi mumkin.

Stress va moslashish qiyinchiliklari-o'smirlar uchun akademik talablar, ota-ona kutishlari, ijtimoiy bosim stressni oshiradi. Bu stressing noto'g'ri boshqarilishi deviant xulq-atvorni kuchaytiradi.

Deviant xulq-atvor ko'rinishlari

O'smirlar orasida deviant xulq-atvor bir necha asosiy ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Agressiv va zo'ravonlik- jismoniy yoki og'zaki zo'ravonlik deviant xulq-atvorning keng tarqalgan formasi hisoblanadi. Bu ko'pincha stress, oilaviy nizolar yoki tengdoshlardan bosim tufayli yuzaga keladi.

Maktab intizomsizligi- darsda qatnasha olmaslik, uy vazifalarini bajarmaslik, qoidalarni buzish-bular deviant xulq-atvor belgilari bo'lishi mumkin.

Gihohvandlik yoki zararli odatlar- chekish, ichimlik iste'moli, narkotik moddalarga qiziqish- ijtimoiy normalarga zid bo'lgan salbiy odatlar.

Jinoyatchilikka moyillik- o'g'irlik, btzorilik kabi harakatlar o'smirlar orasida deviant xulq-atvorning jiddiy ko'rinishi hisoblanadi.

Deviant xulq-atvorning oqibatlari

Deviant xulq-atvor o'smirlar hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi:

-Akademik yutuqlarning pasayishi

-Ijtimoiy ajralish va yolg'izlanish

-O'zini past baholash va ruhiy salomatlikning yomonlashuvi

-Huquqiy muammolar va jinoiy javobgarlik xavfi.

Bu oqibatlar nafaqat yoshning hozirgi hayotini, balki kelajakdagi ijtimoiy roli va muvaffaqiyatiga ham ta'sir qiladi.

Profilartika usullari.

Deviant xulq-atvorni oldini olish uchun kompleks profilaktika choralari zarur bo'lib, ular shaxsiy, oilaviy, maktab va ijtimoiy darajada amalga oshiriladi.

Shaxsiy darajadagi chora-tadbirlar.

Psixologik xizmatlar- o'smirlarda individual konsultatsiyalar, stressni boshqarish bo'yicha treninglar, hissiy intellektni rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlar taqdim etilishi kerak.

O'zini anglash va oi'zini boshqarish ko'nikmalari- meditatsiya, vaqtni rejalashtirish, maqsad qo'yish mashqlar orqali o'smirlar o'z hissiyotlarini nazorat qilishni o'rganadi.

Oilaviy darajadagi profilaktika.

Sog'lom ota-ona bola muloqoti- ota-onalar bilan oilaviy suhbatlar, yoshning fikrini tinglash va qo'llab-quvvatlash muhim.

Oilaviy ruhiy iqlimni yaxshilash- stress, zo'ravonlik va nizolarni kamaytirish uchun oilaviy maslahatlar va treninglar tashkillashtirilishi lozim.

Maktab va ta'lim muassasalari profilaktikasi.

Pozitiv ta'lim muhitini yaratish- o'qituvchilar bilan ishonchli munosabat, hurmat asosida o'quv jarayoni, darsdan tashqari faoliyatlar yoshlarni ijobiy yo'nalishda rag'batlantiradi.

Ijtimoiy darajadagi chora-tadbirlar.

Sport va madaniy tadbirlar- yoshlarning qiziqishlarini ijobiy faoliyatga yo'naltirish sport, san'at, ijtimoiy loyihalar orqali ularga mos ijtimoiy identifikatsiya berish. Jamiyat bilan hamkorlik- mahalla, jamoatchilik tashkilotlari, ijtimoiy xizmatlar bilan olib boriladigan profilaktika dasturlari deviant xulq-atvorni kamaytiradi.

Ilmiy tadqiqotlar va empirik ma'lumotlar.

Yqin yillarda olingan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki:

-Oilaviy nizolar ko'proq deviant xulq-atvor bilan bog'liq bo'lib, bu yoshlarning ijtimoiy me'yorlarga rioya qilmaslik ehtimolini oshiradi.

-Tengdoshlik guruhlari ta'siri kuchli bo'lib, ijobiy guruhlariga qo'shish yoshlarni salbiy harakatlardan uzoqlashtirishga yordam beradi.

-Maktab psixologlari bilan muntazam ishlash deviant xulq-atvor o'sishini sezilarli darajada kamaytiradi. Bu natijada profilaktika strategiyalarini ishlab chiqishda ilmiy ishonchlilikni ta'minlaydi.

XULOSA

O'smirlik davrida deviant xulq-atvorning paydo bo'lishi ko'p omillarga bog'liq bo'lib, ularning asosiylari psixologik va ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog'liqdir. Bu davrda shaxsiyatning ichki nizolari, ijtimoiy bosim, tengdoshlik ta'siri deviant xulq-atvorni kuchaytiradi. Shu sababli bu muammoni yengish uchun kompleks yondashuv zarur bo'lib, shaxsiy, oilaviy, maktab va ijtimoiy darajada profilaktika choralari amalga oshirilishi lozim.

Samarali profilaktika dasturlari yoshlarni ijtimoiy me'yorlar bilan uyg'unlashtirib, ularni salbiy xulq-atvordan uzoqlashtirishga xizmat qiladi va jamiyatda sog'lom, faol shaxslar shakllanishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qodirova F.R. Ijtimoiy pedagogika asoslari.- Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2021.
2. Abdullayeva M.A. O'smirlarda xulq-atvor muammolari va ularning oldini olish.- Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
3. Davletshin M.F. Yosh va pedagogic psixologiya.- Toshkent: O'qituvchi, 2017.
4. Nishonova Z.T. Pedagogik psixologiya.- Toshkent: Fan,2018.
5. Mahmudov T.M. Shaxs tarbiyasi va ijtimoiy moslashuv muammolari.- Toshkent: ma'naviyat,2018.
6. Karimova. V.M. Shaxs psixologiyasi.- Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
7. Rahmonova D.A. O'smirlar bilan psixologik-pedagogik ish olib boorish metodikasi.- Toshkent: Innovatsiya, 2022.
8. Xaydarov F.I. O'smirlar psixologiyasi.- Toshkent: fan va texnologiya,2020.
9. G'oziyev E.F. Umumiy psixologiyasi. -Toshkent: Fan va texnologiya, 2019/
10. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi. O'smirlar o'rtasida huquqbuzarlik va salbiy xulq-atvorning oldini olish bo'yicha metodik tavsiyalar.- Toshkent, 2021.